



PERSEPTIV TIMSOLLARNING TASHKIL TOPISHI VA O'RGANISH METODLARI

Sattorova Mohigul Latipovna

Shahrisabz davlat Pedagogika Instituti

Psixologiya 201-guruh talabasi

Telefon raqam: 99-656-89-03.

Annotatsiya: Ushbu tizimda perseptiv timsollarning shakllanishi, zamonaviy raqamli muhitda vizual va audiovizual axborotning ortishi perseptiv obrazlarni to'g'ri qabul qilish va tahlil qilishni ahamiyatini va ularni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metodlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: perseptiv timsollar, idrok, kognitey jarayonlar, vizual obraz, audiovizual axborot, psixologik mexanizimlar, perseptiv fikrlash va tassavur.

Kirish: Perseptiv timsollar tushunchasi bu- idrok, anglash bilan bog'liq bo'lib idrokning o'ziga xos ko'rish, eshitish, his qilish va boshqa hissiy tajribalariga bog'liq jarayon. Perseptiv timsollar (lotincha percipere-“idrok etish”) iborasini V. Lyubimov (2007) an'anaviy ravishda perseptiv tizim deganda u yoki bu tarzda uning atrofidagi fonda figurani jonlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar va natijalar tushuniladi uni tizimli o'rganish Geshtalt psixologiyada boshlangan” deb hisoblaydi. Ushbu tushunchani yanada kengroq E. Goldshteyn (2010) shunday tariflaydi. “Kichik elementlarni perseptiv jihatdan kattaroq obektga birlashtirish jarayoni.” Perseptiv timsollar sizgi a'zolari orqali qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida yuzaga keladi va insonning atrof -muhitini anglash, narsalarni tanish va voqealiknin mazmunan qabul qilishda asosiy rol



o'ynaydi. Perseptiv timsollarning shakllanishida insonning tajribasi, e'tibor darajasi, ehtiyojlari va matevatsiyasi katta ahamiyatga ega. Qisqa qilib aytganda perseptiv timsollar – bu insonning tashqi omillari idrok etish jarayonida miyada hisil bo'ladigan obrazlar, shakllar va ta'savurlardir. Bunday timsollarning tashkil topishi sensor segnallarning dastlabki qabul qilinishi, ularning nerv tizimida qayta ishlanishi, tajriba bilan bog'lanishi va ma'no topishi orqali amalga oshadi.

Perseptiv timsollarning paydo bo'lish omillari:

1.Genetik omillar: -odamning genetik tuzilishi, miya tuzilishi asab tizimining va faoliyati.

2.Tajriba va o'rganish :- hoyot davomida to'plangan tajribalar, o'rganish jarayonlari, atrof- muhit ta'sirlari.

3.Madaniy va ijtimoiy ta'sirlar -odam yashayotgan madaniyat, ijtimoiy munosabatlar odatlar va qadryatlar.

Zamonaviy raqamli muhitda vizual va audivizual axborotning ortishi.

1.Raqamli muhitda axborotni to'g'ri qabul qilish Internet, reklama, ijtimoiy tarmoqlar inson idrokiga kuchli ta'sir qilmoqda.

Perseptiv timsollar:

-manipulatsiyaga moyillikni;

-axborotni to'g'ri yoki noto'g'ri qabul qilish;

-feyk xabarlariga ishonish mexanezimlarni tushuntirish muhim;

2.Texnologiya va interfeyslar:

-telefonlar, ilovalar, veb-saytlar inson idrok xususiyatlariga asoslanib yaratiladi. Perseptiv timsollar:



-ranglar

-shakllar

-tartib

-vizual metoforalar kabi elementlar qanday baqul qilishimizga asos bo'ladi.

3.Ta'limda yangi metodlar ishlab chiqish bolalar va kattalar axborotini qanday qabul qilish, obrazlarni qanday shakllantirilishi o'quv materiallarning samaradorligini belgilaydi.

Pedagogika perseptiv timsollar asosida:

-vizual o'qish

-modulli materiallar

-obrazli -ta'lim texnologiyalari yaratiladi.

4.Psixologiya va psixoterapiyada ahamiyati perseptiv timsollar bilan bog'liq, zamonaviy terapiya aynan miyadagi timsollarni o'zgartirish orqali samara beradi.

Perseptiv timsollarning o'rganish metodlari: Introspektiv usul (intropeksiya)

-inson o'z his tuyg'ulari va idrokini izohlaydi.

Masalan: sub'ektiv tarizda qanday ranglar yoki shakllar diqqatni ko'proq tortayotganini so'rash.

Foydasi: perseptiv timsollarning sub'ektiv tajribasini aniqlash.

2.Ekspremental psixofizika:

-his tuyg'u stimullari bilan reaksiyalarni o'lchash .



Masalan: ko'ringani, tezligi, rang kontrasti yoki ovoz balandligiga reaksiyani tekshirish

Foydasi: timsollarni timsollarni qabul qilish chegaralariva sezgirlik darajasini aniqlash.

3. Kognitiv testlar.

-Miya va aql funksiyalarni tekshiruvchi mashqlar orqali idrokni baholash.

Masalan: vizual obrazni eslab qolish, obektlarni solishtirish va ularni to'g'ri yo'naltirish.

Foydasi: jismlarning haqiqiy tushunilishi va fikrlash jarayonini ko'rsatadi.

4.Neyropsixologik usullar:

-miyada ayrim hududlar qanday ishlashi o'rganiladi.

Foydasi: idrok jarayoning fiziologik asosini anglash.

5.Zamonaviy niyrovizualizatsiya usullari.

-FMRI (funksional magnit -rezonanstomografiya) yoki EEG (elektrik tsefalografiya) orqali miyadagi perseptiv jarayonlar kuzatiladi.

Masalan: ko'rilganobekt miyada qaysi hududlarni faollashtiradi, qanchalik diqqat tortiladi.

Foydasi: obektiv ma'lumotga erishish va miyaning idrok mexanizimlarini visual ko'rish.

6.Qo'llanma va multimediya nusullari.

- vodiolar, animatsiyalar testlar orqali idrok va reaksiyani tekshirish



Foydasi: real hayot muhitini taqlid qilish va turli stimullarga reaksiyani baholash.

Xulosa.

Perseptiv timsollar-insonning tashqi dunyodan oladigan axborotini his-tuyg'u organlari orqali qabul qilish, miyada qayta ishlashi va barqaror psixika obrazga aylantirishi jarayonida shakllanadi. Ushbu timsollar insonning idroki, fikrlashni, qaror qabul qilishini, va xulq atvorni belgilaydi. Perseptiv timsollar kognitiv jarayonlar: tafakkur, xotira, tasavvur, rivojlanishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, perseptiv timsollar sub'ektiv his-tuyg'u bilan birgalikda miyaning fiziologik jarayonlari orqali ham shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.G'oziyev E Umumiy psixologiya. -Toshkent "O'zbekiston 2019- 256.", R.Jabborov." Kognitiv psixologiyaga kirish" 2020. M.X. Karamyan "Eksperimentlat psixologiya " Toshkent 2023.- 135.

G'aniyev Sh "Psixologik va kognitiv jarayonlar " Toshkent 2020-200.

Hasnov R. "Idrok va bilish jarayonlari " Toshkent. Fan 2018-180

